

JADID ADABIYOTSHUNOSLIGIDA POETIKA MASALASIGA OID YANGI  
QADAMLAR

Saidmurod Xolbekov  
*O‘ZJOKU o‘qituvchisi*

**Аннотация:** В данной статье речь пойдет о новом искусстве, возникшем на фоне критики начала XX века и мнений исследователей более позднего периода.

**Ключевые слова:** поэтика, повторение звука, аллитерация, тавзе', новое художественное средство.

**Summary:** This article will focus on the new art that emerged against the background of criticism of the beginning of the XX century and the opinions of researchers of a later period.

**Keywords:** poetics, repetition of sound, alliteration, tavze', a new artistic medium

XX asr boshlarida yashab ijod qilgan adabiy tanqidchi Vadud Mahmud “Bu kungi she’rlarimiz va san’atkorlarimiz” maqolasida shunday yozgan edi: “Ko‘ringiz Navoiy nima qilg‘on? Majnunning g‘amining tasvirida: Ko‘ngliga o‘guldi ko‘hi anduh, Anduhi yig‘ildi ko‘h to ko‘h. Shu baytda “o” tovushining ugultisi, “g”ning gumburlashi, “h”ning sochilib ketishi va bu tovushlarning takrori haqiqatan tog‘ning yiqilib, ustiga sochilib, maydalani, ketishiga, yiqilib daralarning to‘lub, baqirib ketishiga o‘xshamaydirmi?” [1, 90] Vadud Mahmudning Navoiy bayti asosida o‘tkazgan tahlilini adabiyotshunos olim Bahodir Karimov alliteratsiya (sharq mumtoz poetikasida “tav’ze”) hodisasi ekanligiga e’tibor qaratadi. Sayqaliyning “Ravzat ush-shuhado” asarida quyidagi tasvir uchraydi. Qiror erdi, qaro kunlar qilib ul, Qalam qoshi qarolar bo‘ldilar tul. [2, 37] Keltirilgan parchada “qalam qoshi” so‘zi tashbihi muyaqquad bo‘lib, unda yana “q”, “r”, “l” harflaridan alliteratsiya singari tovushlar takrori natijasida muhoraba sahnasidagi jang shovqini [qilichlarning qarsillab urilishi (“q”), kamonusi nayzalarning tanlarga g‘arqillab sanchilishi (“r”) va o‘limga yuzlangan jangchilarning yuzturban yiqilishi (“l”)] eshitilgandek bo‘ladi. Bu o‘rinda Sayqaliyning tasvirdagi mahoratini sezish qiyin emas. To‘g‘ri, tavze’da tovushlarning takrori muhim ahamiyatga ega. Hodisaning mohiyatiga e’tibor berilsa, tavze’ deb atash ham noto‘g‘ri bo‘lmaydi. Navoiy va Sayqaliydan keltirilgan baytlardagi tovushlar takrori oddiygina tavze’ bo‘lib qolmasdan, tasvirlanayotgan voqyeani ko‘z o‘ngingizda gavdalantira olish, nafaqat gavdalantirish, balki yuz berayotgan hodisani “eshittira olish” xususiyati bilan ham ajralib turadi. Tog‘larning toshlari maydalani sochilib ketishi (Navoiy), qilichlarning qarsillab urilishi, jangchilarning holati tasvirini ham berishi (Sayqaliy) uning yangi badiiy tasviriy vosita sifatida ko‘zga tashlanadi. Mazkur badiiy san’at mohiyatiga nazar solinsa, faqat bir tovushnigina emas, balki bir necha tovushlarning takroridan yuzaga kelishiga e’tibor qaratish lozim. Mazkur badiiy san’at mohiyatiga

# “MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALAR LARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

nazar solinsa, uning o‘ziga xos xususiyati: a) alliteratsiya kabi faqat bir tovushnigina emas, balki bir necha tovushlarning takroridan yuzaga kelishi; b) o‘sha tovushlar takroridan aks ettirilayotgan voqyeaning tasviri nafaqat o‘zi ko‘z o‘ngingizda namoyon bo‘ladi, balki bo‘lib o‘tayotgan voqyeaning ovozi ham eshitilishi kuzatiladi. Vadud Mahmudning ushbu tanlangan asarlarini nashrga tayyorlagan Bahodir Karimov tomonidan amalga oshirilgan keyingi ilmiy kuzatishlar, xususan “Nasrdagi nazokat” deb nomlangan maqolada yozuvchi Xayriddin Sultonovning “Ko‘ngil ozodadur” qissasi tahlili jarayonida ham Vadud Mahmudning yuqorida keltirilgan kuzatishlari ta’siri borligini sezish qiyin emas: “G‘ulom Qunduz bilan tanishgan, uni har kuni dorilfunun yo‘laklarida kutishga odatlangan. Yozuvchi Qunduzning boshqalarga o‘xshamagan tabiat, latif nazokatini G‘ulom tilidan shunday beradi: “Farang-rumo bo‘limidagi hoyuhavaslar, yolg‘on hashamlar unga zig‘ircha ham yuqmagan edi, qiz bola boshi bilan bu ohangrabo ta’siridan musaffo qolgani meni mudom hayratga solardi”. Bu ko‘chirmaning ma’lum qismida “b” tovushining, umuman, gapning o‘zida “h” tovushining hukmronligi seziladi. “H” tovushining talaffuzida mayinlik, noziklik, har tomonlama go‘zal qizlarga xos latofat bor. Tovushdagi o‘sha xususiyat Qunduzning tabiat bilan uyg‘unlashib ketgan” [2, 509]. Bir suhbatda adabiyotshunos olim Vahob Rahmonov badiiy san’atlar rivoji to‘g‘risida gapirib, o‘zi ham bir qancha badiiy san’atlar ijod qilganligi haqida aytgan edi. Lekin qaysilari ixtiro ekanligi “She’r san’atlari” kitobining hyech bir o‘rnida qayd etmagan. Bu olimning o‘ziga xos kamtarligi deyish ham mumkin. Lekin, shu o‘rinda qayd etish kerakki, o‘z davrida Zahiriddin Muhammad Bobur ham aruz vaznining ba’zi bir bahrlari o‘zining ixtirolari (“muxtare””) ekanligini qayd etib, bahrga munosib maxsus baytlar ijod qilgan edi. Bu nokamtarlik emas, balki o‘ziga xos ijodiy jasorat, o‘zini hurmat qila bilish hamdir deb aytish mumkin. Olimning ilmga qo‘shgan hissasini o‘zi ham aytib ketmasa, yillar to‘zonida, varaqlarning bargdek sovrilib ketishi bilan yo‘qlikka mahkum bo‘lib ketishi mumkin. shuning uchun ham ixtiro ekanligini e’tirof qilish ham kerak, deb hisoblaymiz. So‘zimiz isboti sifatida yana bir fakt ni keltiramiz. Yoqubjon Is’hoqovning “So‘z san’ati so‘zligi” risolasida “Tashobih ul-atrof” badiiy san’ati haqida so‘z yuritib, uning bir qadar murakkab so‘z san’ati ekanligini, shu boisdan Alisher Navoiy asarlarida ham kam uchrashini aytadi va: “Mumtoz poetikaga doir qator asarlarda, chunonchi, “Talxis ul-miftoh” (Sakkokiyl asari asosida, XIV asr), “Tarjimon ul-balogs‘a” (XI asr), “Hadoiq us-sehr fi daqoiq ush-she’r” (XII asr), “Aruzi Humoyun” (XV asr), “Jam’i muxtasar” (XV asr), “Rahnamoi adabiyoti forsiy” (XX asr), “San’ati suxan” va “Lug‘ati istilohoti adabiyotshunosi” singari kitoblarda nima uchundir (Ta’kid bizniki. – S.X.) bu san’at haqida ma’lumot berilmagan. Tashobih ulatrof to‘g‘risidagi ma’lumot va bu san’at qo‘llanilgan forsiy

**“МАHMUDХО‘JA ВЕHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID  
MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI”**  
**mauzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

she’rlardan namunalarni faqatgina Sayid Muhammadrizo Doyi Jovidning “Zeboihoi suxan yo ilmi bade dar zaboni forsi” (Isfahon, 1956) nomli asarida uchratamiz. Biroq bu muallif o‘z tadqiqotlarida qaysi manbalarga asoslanganini ko‘rsatmaydi (Ta’kid bizniki. – S.X.)” [4, 89]. Balki, V.Rahmonovga o‘xshab Doyi Jovid tashobih ul-atrofnii ixtiro qilib, risolasida uning “muxtare”ligini qayd etmagan bo‘lsa, ehtimol.

Lekin Sobir Sayqaliy “Ravzat ush-shuhado” dostonidan keltirilgan jang tasviri parchasida, Navoiy baytidagi tasvirlarda badiiy tasviriy vositasi bo‘lgan tavze’ning bir differensiatsiyasi ekanligini kuzatish mumkin. “Differensiatsiya” so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da (lot. differentia – ayirma, farq; farqlanish) Bir butun narsaning turli qismlarga, shakllarga, bosqichlarga ajralishi, bo‘linishi, tabaqalanishi; butunning qismlarga o‘zaro farqlash, ajratish, tabaqalash” deb izohlangan [5, 63]. Mazkur o‘rinda Navoiy hamda Sayqaliy asarlaridan keltirilgan parchada badiiy san’at turi bo‘lgan tavze’dan ajralib chiqqan yangi bir badiiy san’at to‘g‘risida qarashlarimizni o‘rtoqlashishni lozim topdik. Mazkur she’riy san’at rus she’riyatida, xususan, Andrey Usachyovning “Shurshaçaya pesnya” she’rida ham mazkur she’riy san’at turidan unumli foydalananilgan. Undagi tasvirga e’tibor berilsa, she’rdagi “sh” tovushidan, ba’zi o‘rnillarda uning bir necha bor takrorlanib kelishidan shitirlagan qamish sadosidan, shildiragan suvlarning nafis sasidan, yomg‘irning shig‘irlagan inja tovushidan katta polotno singari yaxlit manzara ko‘z o‘ngingizda namoyon bo‘ladi:

Шуршат осенние кусты,  
Шуршат на дереве листы.  
Шуршит камыш,  
И дождь шуршит,  
И мышь, шурша,  
В нору спешит.  
А там тихонечко шуршат  
Шесть шустрых маленьких мышат...  
Но все вокруг возмущены:  
– Как расшуршались шалуны!  
Шуршат на малышей кусты.  
Шуршат им с дерева листы.  
Шуршит рассерженный камыш.  
И дождь шуршит,  
И мама-мышь,  
Весь лес шуршит им:  
– Шалуны, Не нарушайте тишины!

**“МАHMUDХО‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID  
MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI”**  
**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Но их не слышат шесть мышат.  
Давно мышата не шуршат.  
Они легли пораньше спать,  
Чтоб не мешать Большим шуршать! [6]

Bu she’riy san’atning bir turi sifatida fanga olib kirish kerak, deb o‘ylayman. Va uning nomini “tavze”i mohirona” “mohironalik bilan aytilgan tavze” degan nom berilishni taklif qilaman. Bahodir Karimovni go‘yoki inkor qilgandek bo‘lib qolyapman. Bu yerda falsafadagi inkorni inkor qonuni yuzaga kelgandek (balki bir hisobdan bu to‘g‘ridir) bo‘lib ham qolmoqda. Lekin B.Karimov biz, talabalarga o‘tgan “Adabiyotshunoslik metodologiyasi” darslarida olim kishi qanday qilib o‘z metodini yaratishi mumkinligi haqida gapira turib bir misol keltirgan edi. Maktab yaratgan olimlar o‘qib-o‘rganishlari, izlanishlari davomida o‘z “doira”sini yaratishi, undan keyingi olimlar o‘sha doira yoniga yana bir doirani qo‘sishlari, bu hodisani keyingi avlod olimlari salaflaridan o‘rgangan holda yuzaga keltirishi mumkinligini va bir kun kelib siz ham oldingilarning merosini o‘rgana borib, o‘z doirangizni (metodingizni, maktabingizni) yaratishingiz mumkin degandilar. Bu fanlarning o‘z taraqqiyoti davomida yangi bir tarmoqlarni yuzaga keltirishi kabi jarayonni ham esga tushiradi. Bu dastavval g‘alati tuyulishi ham mumkin. Lekin davrlar o‘tib unga o‘z javobini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi B. Karimov). – Toshkent: Ma’naviyat”, 2007. – B. 90.
2. Sobir Sayqaliy Hisoriy. Ravzat ush-shuhado. – T.: Movarounnahr, 2004. – B.37.
3. Karimov B. Nasrdagi nazokat // O‘zbek adabiy tanqidi (“XX asr adabiyotshunosligi” antologiyasi. 1-kitobi). – Toshkent: “TURON-IQBOL”, 2011. – B. 509.
4. Yoqubjon Is’hoqov. So‘z san’ati so‘zligi. – Toshkent: ZARQALAM, 2006. – B. 89.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild. – Toshkent: O‘zME, 2006. – B. 63.
6. Andrey Usachev. Shurshaşa pesnya. Istochnik: <http://rustih.ru/andrej-usachyov-shurshashhaya-pesnya/>